4919/2758

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XUSUSIYLASHTIRISH, MONOPOLIYADAN CHIQARISH VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT QO'MITASI

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI MUVOFIQLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MARKAZI SAMARQAND VILOYAT HUDUDIY BOSHQARMASI

THE STATE COMMITTEE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN FOR PRIVATIZATION, DEMONOPOLIZATION AND DEVELOPMENT OF COMPETITION

SAMARKAND REGIONAL DEPARTMENT OF THE CENTER FOR COORDINATION AND DEVELOPMENT OF SECURITIES MARKET

140108, O'zbekiston, Samarqand, Mir Said Baraka ko'chasi, 49
Tel.: 998 (66) 233-16-49, Fax: 998 (66) 233-45-96,

49, Mir Said Baraka str., Samarkand, Uzbekistan, 140108
sam.csm.gov.uz e-mail: samarkand@csm.gov.uz

" 29 " dekabr 2014 yil. № 05-11/БҚ-15

**Акциялар чиқарилувини ҳамда акцияларга берилган миллий идентификация рақамларини бекор қилиш тўғрисида**

# ҚАРОР

"Juma elevatori" ochiq aksiyadorlik jamiyati акциядорларининг 2014 йил 30 июндаги йиллик умумий йиғилиш қарорига ҳамда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2009 йил 30 августда 2000- рақам билан рўйхатга олинган "Қимматли қоғозлар эмиссияси ва эмиссиявий қимматли қоғозлар чиқарилишларини давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида"ги Қоидаларининг 100- банди талабларига мувофиқ бошқарма

## ҚАРОР ҚИЛАДИ:

**1.** "Juma elevatori" ochiq aksiyadorlik jamiyati акцияларини майдаланиши ва аввал чиқарилган акциялар янги чиқарилган номинал қиймати камайтирилган акцияларга айирбошланиши муносабати билан жамиятнинг Қимматли қоғозлар бозори фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Маркази Самарқанд вилояти бошқармаси томонидан 2010 йил 3 февралда Н0083-5- рақам билан ҳамда 2014 йил 20 февралда Н0083-6- рақам билан давлат рўйхатига олинган акциялар чиқарилувини Эмиссиявий қимматли қоғозлар чиқарилишларининг ягона давлат реестридан чиқариш учун қуйидаги ҳужжатларни тақдим этганлиги маълумот учун қабул қилинсин:

- ариза;
- жамиятнинг Қимматли қоғозлар бозори фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Маркази Самарқанд вилояти бошқармаси томонидан 2010 йил 3 февралда Н0083-5- рақам билан рўйхатга олинган акциялар янги чиқарилиши тўғрисидаги қарори ҳамда эмиссия рисоласининг асл нусхалари;

- бошқарма томонидан *2014 йил 20 февралда Н0083-6-* рақам билан рўйхатга олинган акциялар янги чиқарилиши тўғрисидаги қарори ҳамда эмиссия рисоласининг асл нусхалари.

**2.** “Juma elevatori” ochiq aksiyadorlik jamiyati акцияларини майдаланиши ва аввал чиқарилган акциялар янги чиқарилган номинал қиймати камайтирилган акцияларга айирбошланиши муносабати билан жамиятнинг Қимматли қоғозлар бозори фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Маркази Самарқанд вилояти бошқармаси томонидан 2010 йил 3 февралда Н0083-5- рақам билан ҳамда 2014 йил 20 февралда Н0083-6- рақам билан давлат рўйхатига олинган акциялар чиқарилувларига асосан чиқарилган умумий қиймати 826 814 000 сўмлик, номинал қиймати 7 900 сўм бўлган 104 660 дона оддий акциялари ва миллий идентификация рақамлари (RU105H0083T4 ва RU106H0083T2) бекор қилинсин.

**3.** Бошқарма бошлиғи ўринбосари А.Саттаров зиммасига:

- “Juma elevatori” ochiq aksiyadorlik jamiyatiнинг акциялар чиқарилувига берилган миллий идентификация рақамлари (RU105H0083T4 ва RU106H0083T2) бекор қилинганлиги тўғрисида Эмиссиявий қимматли қоғозлар чиқарилишларининг ягона давлат реестрига тегишли ёзувлар киритиш;

- мазкур қарорнинг бир нусхасини “Juma elevatori” aksiyadorlik jamiyatiга ва бир нусхасини Қимматли қоғозлар марказий депозитарийсига маълумотлар базасига тегишли ўзгартиришлар киритиш учун тақдим этиш топширилсин.

**4.** Ушбу қарорни ижросини назорат қилиш вазифаси бошқарма бошлиғи ўринбосари А.Саттаров зиммасига юклатилсин.

**Бошқарма бошлиғи** **Н.А.Жўлматов**

Ижрочи: А.Саттаров
Тел: (0366) 233-16-49